

**BOLALARDAGI INTERFAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN
METODLAR***Toxirova Madina Alisher qizi**Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Boshlang'ich
ta'lif yo'naliishi 1-kurs talabasi**Mtoxirova855@gmail.com +998977032283*

Annotatsiya: Bu maqolada bolalardagi interfaollikni qanday rivojlantirsa bo'ladi hamda bir qancha o'qitish metodlari haqida gap ketadi

Kalit so'zlar: Kanfutsiy , STEAM , bolalarda qiziqish uyg'otish, pedagoglar

Insonning kamoloti shakllanadigan muqaddas dargohlardan biri bu mакtabdir. Ilk bor jajji qalbimizga katta orzular , yuksak maqsadlar , intilishlar olib kirgandir.Darhaqiqat, har bir buyuk shaxsning rivojlanish yo'li yoshlikdan boshlanadi. Bunda ustozlarning mehnati, ota-onaning qo'llab-quvvatlashi bir shaxs bo'lib yetishish uchun juda katta turtki bo'ladi. Mana shu yerda pedagogning asosiy vazifalari yuzaga keladi. Ya'ni bolalarda fikrlashni va nutqni rivojlantirish , xotira bo'yicha ishslash hamda bolalarni darslarga qiziqtirish.

Ayni hozirga zamonda pedagoglarga juda katta vazifa yuklatilgan , ya'ni yurtimizning kelajaklari bo'lmish yoshlarga to'g'ri ta'lif hamda tarbiya berib ularni yetuk bir shaxs bo'lishlariga yordam berish. Ustozimning bir gaplari bor edi "yoshlar bizdanda aqli shu sababli biz pedagoglar o'zimizni ustimizda ko'proq ishlashim kerak" shubhasiz zamon rivojlangan sari bolalar ham zamon bilan baravar ketishmoqda . Ho'sh pedagoglar bundan zamonaviy bolalarga qanday dars o'tishlari kerak ? degan savol tug'ilishi tabiiy hol

Bunga yechim sifatida o'zim shu paytgacha o'rgangan bir necha metodlarni qo'llash usullarini aytib o'taman. Avvalo, bir narsa muhumki agar pedagog o'z shogirdidan muvaffaqiyatli bo'lishini kutsa bu Bolani muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Demak biz pedagoglar bolalarni muvaffaqiyat qozonishiga chin dildan ishonishimiz kerak bo'ladi. Hozirgi zamonaviy bolalar asosan rangli narsalarni juda yaxshi ko'rishadi va ularni ko'rganlarida qiziqib qolishadi va bu o'quvchilarni onggiga tasir o'tkazadi .

1-metod o'quvchilarni qiziqtirish

Deylik siz biron bir hikoyani bollalarga rasm orqali tushuntirib bering.

Men bunda 3 -sinf o'qish kitobidagi 1 hikoyani oldim va mana shu hikoyani misol tariqasida ko'rib chiqamiz. O'qish kitobidagi "Vatanni suymak "(Aziz Abdurazzoq) hikoyasini olsak . Bunda bizga kerak bo'ladi Toshkent rasmi tushirilgan rasm , bir qahramon rasmi, biron bir qishloqning rasmi hamda hovuzdagи baqalarning

rasmi kerak bo'ladi. Bu rasmlarni do'skaga voqealarni birin ketin joylashtiramiz va shu rasmlar orqali bolalarga hikoya nima haqidaligini tushuntirib beramiz. Oddiy kitobdan o'qitish bilan bu usuldan foydalanish ancha yaxshi samara beradi bunda bola mana shu rasm orqali xotirasida saqlab qoladi.

2-metod deylik siz bolalarga sher yodlashni uyg'a vazifa qilib topshirgansiz. Bolalar ham yodlab keldi va ularni barchasini bir darsda yodlata olmaysiz sababi sizda vaht kam shu sababli quyidagi usuldan foydalansangiz bo'ladi. Ya'ni siz topshirgan she'rizni qog'ozga yozib qaysidir so'zlarini tashlab keting misol uchun 3 sinf o'qish kitobidagi "O'jar Toshbaqa" (Hamidulla Yoqubov) she'rini olsak:

Bir o'jar yosh _____ -

Injiq,bebosh Toshbaqa

_____ ga: Dod! – dedi

Menga _____ top , dedi.

Mana shu usulda bunda bolalar ham og'zaki ham yozma ishlashadi . Ya'ni she'rni eslash uchun qaytadan o'zlariga aytib eslaganlaridan so'ng yozishadi. Shunday qilib siz 30 nafar o'quvchini bemalol baholay olasiz.

3-metod O'zgaruvchan matritsa .Ya'ni siz bolalarni o'yplashiga majbur qilasiz biron bir hikoyani olasiz.Avval bu hikoyani o'qib chiqamiz undan so'ng bolalar bilan savol javob qilamiz . Ho'sh bolalar yozuvchi bizlarga bu hikoya haqida nima demoqchi? , agar bu hikoyani biz yozganimizda sarlavhasini qanday qo'yan bo'lardik? , muallif bu yerda nimani qoldirib ketdi ? huddi shunga o'xshash savollar beramiz bu savollar bolalar darsga yanada yaxshiroq yondashadilar ,o'ylaydilar hamda ularda fikrlash va nutq rivojlanadi

4-metod Albatta barcha bolalar ham darslarni tez ilg'ab olmaydilar. Bu uchun bollarni yana bir usul bilan qiziqtirsak bo'ladi . Ya'ni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bolalar bilan alohida ishlab ularga aytинг men sizlarga vazifalar beraman usha vazifalarni ishlab kelsangiz sizga pul beraman (albatta qog'ozdan yasalgan pul) va ohirida bozor uyushtiramiz pulingizga qarab narsalar olasiz. Va birinchisida bolalar unchalik qiziqmasligi mumkin lekin ikkinchisida bollar qiziqib ketadi . Deylik siz ulardagi bor pulni bilasiz ushanga yarasha narsalarni masalan ruchkani ming so'm , qalamni ming so'm huddi shu tartibda narxlab chiqasiz va eng ohirida kattaroq sovg'a olasiz va uni qimmatroq baholaysiz . Agar bolalarni shu sovg'aga puli yetmasa keying safar yaxshiroq harakat qilib shu sovg'ani olishga intiladi. Va ko'ryapsizki bola oldingi harakat qilishni boshlaydi. Albatta bu usulni ota ona bilan maslahatlashib qilganiz yaxshi

5-metod Aqliy hujum

Aqliy hujum orqali bolalarni yanada darsga e'tiborli bo'lishga undaysiz . Bu usulning o'ziga yarasha qoidalari bor:

1-hamma javobni qabul qilish kerak

2-fikrlar muhokama qilinmaydi

3-vaqt aniq belgilanadi.

6-metod Bolalarni tanqidiy rivojlantirish . Bunda biron bir hikoya ,ertak olsak bo'ladi. Masalan men “Zumrad va Qimmat “ ertagini oldim uni bolalarga aytib berdim , endi ularni tanqidiy fikrlashga undaymiz bu ertakda kim yaxshi ro'lida ? ular aytishadi Zumrad , ho'p Qimmatchi ? u yomon obrizda ho'p yaxshi unday bo'lsa Zumrad nega otasini etkanini qilmadi shu yerda o'tirgin dedi nega o'tirmadi ? bolalarda bu savoldan keyin tanqidiy o'yash bosqlanadi. Yana siz savol berishni bosqlaysiz ? Nega Qimmat hamma narsaga ho'p deydi ? va albatta bu savolni to'g'ri tushuntirishiz kerak bo'ladi va bu yuqorida aytganidemtanqidiy rivojlanishni oshiradi.

7-metod eng mashhur usullardan biri STEAM .Bu usulda jamoviy ishlashni o'rgatamiz . Ya'ni siz o'z o'quvchilaringizni nimalarga qiziqishini bilasiz shu usulda ularni jamoaga bo'lasiz deylik 10 ta o'quvchingiz rasm chizishga yana 10 ta o'quvchingiz matematikaga yana 10 tasi biron bir kashfiyotlar qilishga hamda ohirgi guruhingizni gullarga qiziqar mana shunday qilib bo'lib olasiz ularga vazifa berasiz. Sciente guruhidagilarga biron bir gulni yoki tabiat hodisalarini rasmini 4bo'lakka bo'lib berasiz va mana shu bo'laklarni birlashtirib uni tasvirlab bering deysiz . 2-guruh Technology guruhiiga suvni uy sharoitida qanday filtirlasa bo'ladi va uni uyda videoga olib qo'yib berasiz degan vazifa beriladi. Shunday qilib guruhlarga vazifalar berasiz va ular bajaradilar bu jamoviy ishlash hamda o'zaro komunikativ rivojlanishiga ham olib keladi.

Aslida usullar, metodlar juda ham ko'p faqatgina biz pedagoglar o'z ustimizda ko'proq ishlashimiz va bolalarga bilganlarimizni yetkazib bera olishimiz kerak. Konfutsiyning bir gapi bor “Eshitdim unutdim , ko'rdim esladim bajardim tushundim” . Darhaqiqat biz o'rganganlarimizni bilganlarimizni amalda ham qo'llay olishimiz kerak ana shunda bu bilganlarimiz o'z samarasini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. 3-sinf o'qish kitobi (2016,M.Umarova , X.Hamroqulova)
2. 2-sinf o'qish kitobi (2016 T.G'afforova , SH.Nurullayeva)